

8-10-2019

FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING SKILLS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Nozima Adhamovna Mamadjanova
Doctor of Namangan State University

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Mamadjanova, Nozima Adhamovna (2019) "FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING SKILLS IN THE EDUCATIONAL PROCESS," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 4 , Article 46.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss4/46>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING SKILLS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Mamadjanova Nozima Adxamovna
Namangan davlat universiteti doktoranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirish omillari hamda tanqid, tanqidiy tahlil, tanqidiy fikrlash tushunchalarini keng yoritib tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** tanqid, tanqidiy tahlil, tanqidiy fikrlash...*

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Мамаджанова Нозима Адхамовна
Докторант Наманганского государственного университета

***Аннотация:** В статье представлен анализ путей развития критического мышления в учебно – воспитательном процессе. Также раскрыто содержание понятий “критический”, “аналитический”, “критическое мышление”.*

***Ключевые слова:** критический, критический анализ, критическое мышление...*

FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING SKILLS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Mamadjanova Nozima Adhamovna
Doctor of Namangan State University

***Abstract:** The article presents an analysis of the ways of development of critical thinking in the educational process. The content of the concepts of "critical", "analytical", "critical thinking" is also disclosed.*

***Key words:** critical, critical analysis, critical thinking ...*

Milliy istiqloq tufayli taraqqiyotining barcha sohalarida jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda bilim darajasi jahon andozalari talablariga javob beradigan, mustaqil tanqidiy fikrlay oladigan, hayotga o'z g'oya va fikrlarini qo'rqmasdan, dadillik bilan ifoda eta oladigan yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishning bosh omillardan biri tanqidiy fikrlash tizimidir.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish har bir pedagogning muhim vazifalaridan biridir. Avvalo tanqid, tanqidiy tahlil va tanqidiy fikrlash tushunchalarini sharhlash maqsadga muvofiqdir.

Tanqid biror bir narsaga baho berish maqsadida uni o'rganish, muhokama qilish, tahlil qilish, kamchiliklarni atroflicha asoslash va hal etish maqsadida bildiriladigan fikr mulohazalar yig'indisidir. Shu jihatdan tanqidga taraqqiyot omili sifatida qaraladi. Tanqid asosli bo'lsa uni mavjud kamchiliklarini bartaraf etishga olib kelib taraqqiyotga ijobiy

ta'sir qiladi. Ilmiy manbaalarda, tanqid muhokama san'ati, baholashga bo'lgan qobiliyat sifatida qaraladi

Ta'lim jarayonida tanqidiy tahlil pedagog va o'quvchilar ta'limiy o'zaro bog'liqligidan iborat o'quv faoliyati natijalarini o'rganish usulidir.

Tanqidiy - tahlilning ta'lim va tarbiya jarayonidagi pedagogik vazifasi o'quvchining o'quv faoliyati natijalarini to'ldirish, chuqurlashtirish, to'g'rilash, tuzatish, mazmundor nazorat qilishdan iborat. Natijalarni tanqidiy - tahliliy baholash butun jamoaga o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishga faol ko'maklashadi. O'quvchi tanqidiy - tahliliy fikrlashining jadal qaror topishi usulining rivojlantirish samarasidan iboratdir.

O'quvchilar tanqidiy fikrlashini o'rganishda zamonaviy didaktika hamda o'qish jarayonida o'quvchilar psixik tanqidiy fikrlashi bilan shug'ullanuvchi ta'lim psixologiyasi yutuqlaridan foydalanadi. O'quv materiali yosh va mazmunga bog'liq holda bu faoliyatning o'ziga xosligi ta'lim jarayoni psixologik qonuniyatlarini o'rnatadi, tanqidiy fikrlashida o'quvchilarning individual va tipik xususiyatlarini ko'rib chiqadi.

Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Pirson, Xansen, Gordon (1979)lar ta'kidlashlaricha o'z fikrlarini shakllantirish go'yo avvalgi g'oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham:

- fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash;
- o'zaro tanqidiy fikrlar almashish;
- o'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
- fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olish.

Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun o'quvchilar ma'qul va noma'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim. O'quvchilar mumkin bo'lgan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar.[8]

Tanqidiy tahlilga izn olish didaktik tamoyillarning biri bo'lgan onglik tamoyiliga asoslanadi. Bu tamoyil o'quvchilarga "nega?" degan savolni tinmay berish yo'li bilan ularda sabab va oqibat orasidagi bog'lanishni anglash uchun sharoit va izn yaratib beriladi. Bundan tashqari, pedagog o'quvchilarga tanqidiy tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn berish fikrlash uchun maqsad bo'lib, do'stona hamda samarali sharoitda kechadi.

O'quvchilarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi.

Turli xil fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javobdan voz kechilgandagina mavjudligi yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda o'quvchilarning fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat birgina javob lozim bo'lgan taqdirda hilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida ular ana shu javobni topa olsin.

O'zlashtirish jarayonida tahliliy-sintetik faoliyat, shuningdek qiyoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish va aniqlashtirish kabi fikriy operatsiyalar muhim ro'l o'ynaydi. Ta'lim va tarbiya jarayonida bilim va tarbiya oluvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish qiyin jarayondir. Bu jarayon inson umrining muayyan bir yosh davrida tugallanadigan va esdan chiqariladigan jarayon ham emas. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarcha tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun har bir pedagogdan tanqidiy fikrlashning tuzilishlarini, aqliy faoliyatning umumlashgan usullarini qo'llash, bola shaxsining shakllantirilishini ta'minlash, uning qobiliyatlarini

aniqlash, o'qishga istak va o'quvini uyg'otish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashining barcha komponentlarini egallashga yo'naltirish asosida tizim ta'limga tayyorlash, shaxsni har tomonlama faollashtirish maqsadida o'quvchilarni faol tanqidiy fikrlashini tarbiyalashning motivlarini va prinsiplarini ta'minlash zaruriyati talab etiladi. Shu bilan bir qatorda, tanqidiy fikrlash mohiyati g'oya va tajribalarning turli tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi.

Tanqidiy fikrlashda "yakka yagona to'g'ri javob"ni talab etadigan aqliy faoliyat yuz bermaydi. Bunday holat bolaning fikrlash qobiliyatini bo'g'ib qo'yadi. Qachonki bolaga o'z fikrini erkin izhor etish uchun sharoit yaratilganda, g'oya va fikrlarni qabul qilish hissini uyg'otilganda, o'quvchiga ruhan qo'rqmasdan o'z fikrini bayon qilishda cho'chimaslikka olib kelinganda va ularning tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlanganda erkin va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi. Chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilim olishlariga o'qituvchi masul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondoshuv ularning faolligini o'stiradi.

Mixali Chikjentmixaliy (1975) ta'kidlaydiki, talabalar o'sha murakkab darajadagi o'quv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta bahra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar. [8]

Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqmay tavakkal qiluvchi insonlarni rag'batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida «ahmoqona g'oyalar» aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo'lishi mumkin. O'qituvchi uni o'quv jarayonini tabiiy holati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim. Talabalarni tavakkaldan holi bo'lgan, ya'ni g'oyalar qadrlangan, talabalarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivatsiyalash imkoni bo'lgan muhitda o'ylash lozimligi haqida ularda ishonch hosil qilish zarur.

Tanqidiy fikrlashning omillaridan yana biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashdir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan chog'dagina chuqur ma'suliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar. Talabalar o'z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar. Unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar. [9]

Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talabalarning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo'lish lozim. Bu esa talabalarda o'z g'oyalari mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi.

Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur. Talabalarning o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o'z fikrining tushuncha va masalani muhokama qilish jarayonida o'ta muhim, shuningdek, katta-hissa bo'lib hisoblanishini tan

olishlari kerak. Fikrlash jarayoni talabalarning o'zaro fikr olishuvini ko'zda tutadi. Talabalarning o'zaro fikr olishishi ularning bir-biridan o'rganishdagi o'rtoqchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi.

References:

1. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, "Pedagogik texnologiya asoslari", T., 2004.
2. J.Yo'ldoshev, "Ta'lim yangilanish yo'lida", T., 2000.
3. Ptiyukov V.Yu., "Osnov pedagogicheskoy texnologi", M., 1999.
4. Xoxlova Lyudmila Vasilevna. Razvitie kriticheskogo mishleniya uchashixsya v protsesse obucheniya filosofii : Dis. ... kand. ped. nauk : Ekaterinburg, 2003 158 s.
5. SHakirova, D.M. Texnologiya formirovaniya kriticheskogo mishleniya mladshix shkolnikov. Nachalnaya shkola. – 2007.
6. Critical Thinking tools by Richard W. Paul, Linda Elder 2002
7. R.A.Mavlonova, N.H. Rahmonqulova "Umumiy pedagogika" T.,2018
8. N.N.Azizxo'jayeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T., 2006
9. Mavzu:"Tanqidiy fikrlash asoslari" S.Donayev.